



**QASHQADARYO VILOYATI
G‘UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy. Tel:75.552-13-60

2021 - yil 14 - oktabr

264-4-56-Q/21

G‘uzor tuman hokimligi

**Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 15-sentyabrdagi "Viloyatda
2021-2022-o‘quv yilida xorijiy tillarni chuqurlashtirib o‘qitishga
ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 493-4-0-Q/21-sonli
qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qarori, 2008-yil 7-avgustdagi "Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 173-sonli, hamda Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 15-sentyabrdagi "Viloyatda 2021-2022-o‘quv yilida xorijiy tillarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 493-4-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. G‘uzor tuman Xalq ta‘limi bo‘limi mudiri (R.Eshqobilova) tumandagi 1-umumta‘lim maktabi negizida xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktabini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. Tuman Xalq ta‘limi bo‘limi mudiri (R.Eshqobilova):

-yangi tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyatini baholash;

-yangi tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktablarga zamonaviy pedagogik

metodikalar va texnologiyalarni egallagan malakali, tajribali, oliy va birinchi toifali pedagog kadrlarni jalb etish;

-maktabda davlat ta'lim standartlari talablari asosida chuqur ta'lim tayyorgarligini oshirish;

- o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish;

-har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

professional dastur ta'limlarini ongli tanlash va keyinchalik o'zlashtirish uchun asos yaratish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman Moliya bo'limi mudiri (Sh.Xurramov) maktablar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan o'z nomi davlat tilida yozilgan muhri va burchak shtamplarini olish, ularni belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tkazish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman bo'limi (B.Hasanov) bir hafta muddatda amaldagi qonunchilik talablari asosida tashkil etilayotgan ta'lim muassasasiga binoning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (X.Yuldashev), Xalq ta'limi bo'limi mudiri (R.Eshqobilova) bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

6. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i (Z.Tursunov) tumanda tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablarni dumaloq muhri va shtamplarini o'rnatilgan tartibda almashtirib berishga amaliy yordam ko'rsatsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



Б.Суюнов